

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10899993>

## TA'LIMDA MAKTAB VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

**Isxakov Xusniddin Mirqunduzovich**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti akademik litseyi

Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

e-mail: [mymzmf@gmail.com](mailto:mymzmf@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada oila va maktab hamkorligi tizimini rivojlantirish haqida. Oila va maktab bolalar hayotidagi ikkita markaziy muhitdir. Shuning uchun ularning hamkorligi ta'limning muhim omili sifatida qaraladi. Ta'lim natijalari, motivatsiya va ularning salomatligiga bu ikki markaz o'rtasidagi kolobaratsiya katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda uy va maktab ta'lim hamkorligidagi potensial keskinlikni ko'rsatadi, chunki maqsadlar, vakolatlar va ta'limdagi rollarga oid turli fikrlar nizolarga sabab bo'lmoqda. Bu maqolada ota-onalarning maktablar bilan hamkorlik qilish bo'yicha tajribasi, ehtiyojlari va talablari haqida hamda ota-onalarning umumiy qoniqish darajasi, ularning farzandlari maktabdagi hissiy farovonligi, hamkorlik sifati maktab va o'qituvchilarga bo'lgan ishonch bilan bog'liq masalalar muhokama qilingan.*

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, ota-ona, maktab, hamkorlik, inklyuziv ta'lim.

### KIRISH

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila – jamiyat hayotining kichik bir bo'lagi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol, avlodni voyaga yetkazish uchun mas'uldir. Shu o'rinda maktabning ham mas'uliyati juda katta ahamiyatga ega. Oila va Maktab – bolalar va o'smirlarning sog'lom rivojlanishi va ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlashda ikki muhim manfaatdor tomon hisoblanadi. Hozirgi kunda yashash tarzimizni har hil texnologiyalar yordamida yengillashtirib kelayabmiz, yengillik ko'paysa o'z o'zidan dangasalik va yoshlarimizda hayotga yengil qarash ortadi. Bunday yoshlarni bir narsaga undash, to'g'ri va noto'g'rini tushuntirish katta muammoga aylanib bormoqda. Bu muammolarni yechishda Maktab va oila hamkorligi mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'ygan holda bajarishimiz mumkin. Maktab va oila hamkorligiga oid ishlar maktab istiqboliga qaratilgan. Muvaffaqiyatli hamkorlik avvalom bor bolalarning farovonligi

va yutuqlari uchun zarur tizim bo'lganligi sababli bu hamkorlik har ikki tamonlama istiqbolli bo'lishi kerak. Afsuski hamkorlikni to'liq yo'lga qo'ya olmaslikning sabablaridan biri, ba'zi bir o'qituvchilarmizning malakasi yetarli emasligidan jamiyatda ta'lim muassasalari haqida negativ fikrlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Hozirda ko'p o'qituvchilar ayrim sabablarga ko'ra o'quvchilar bilan do'st bo'lishni o'ylab ham ko'rmaydilar, buning oqibatida o'quvchining faqat yomon taraflari ko'zga ko'rinadi. O'quvchi haqida faqat yomon tarafini ota onaga yetqazadi. Usha yomon o'quvchi kimningdur farzandi, har qancha yomonlasa bu teskari reaksiyaga olib keladi, ota-onaning ko'z oldida o'quvchi emas aksincha o'qituvchi yomon degan fikr paydo bo'ladi. Maktab va Oila hamkorligi shu nuqtada yakun topadi, endi bu jarayonda bolaning bu maktabdan bilimli, tarbiyasi va katta maqsadlar bilan chiqish ehtimoli judayam past darajada bo'lishi aniq. Ota-onaga farzandi yaxshi ekanini aytish ajoyib tuyg'u. Bu tuyg'u ota yoki onaning ish faoliyatiga, jamiyatga qolaversa farzandining tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining ijobiy yoki salbiy tomonlari haqida gapirganda o'qituvchi aniq va tiniq isbotlarga tayangan holda gapirishi kerak, ayniqsa salbiy tomonlar haqida gap ketganda ota onaga bu holat yechimini ham taqdim qilishi kerak. Ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik muhitini a'lo darajada bo'lishi uchun, farzand haqida fikr bildirganda rag'batlantiruvchi fikrlar, o'quvchining rivojlanishiga yordam beradigan konstruktiv usullarni taklif qilish, ota-onalar va o'qituvchi hamkorligi o'quvchining muvaffaqiyatiga qanday ta'sir borligi, o'quvchining kelajagi uchun raja tuzish uchun birgalikda ishlash kerakligi, va shuni ta'kidlab o'tish kerakki, agar siz bir jamoa bulib ishlasangiz o'quvchi aniq muvaffaqiyatga erishishi haqidagi tushuntirishlardan iborat bo'lishi kerak.

Mening 4 va 5 sinf farzandlarim bor, fanlarni o'zlashtirish imkoniyatlari menga ma'lum, katta farzandim kichigidan ko'ra matematik misollarni yechishi, sherlar yodlashi 80% ga yuqori(masalan matematikani katta farzandim tushuntirishimning yarmida tushunib bo'ladi, lekin kichkina farzandimga kamida 3 marta qayta qayta misollar bilan tushuntirish kerak, vaholanki 4 sinf matematikasi 5 sinfnikidan murakkabroq). lekin maktabga bo'lgan mehr, Sinf rahbariga bo'lgan muhabbati kichkina farzandimda 100% ga ko'proq. Sinf rahbarlari bilan suxbatlashib, maktabdagi muhitni o'rgangan holda kuzatishlar natijasidan men shunga 100% iqrora bo'ldim, ba'zi bir o'qituvchilar kelajagimiz iqtidorlari chirog'ini yonishga ulgurmasdan so'ndirib qo'yishmoqda. Statistika shuni ko'rsatadiki 7 sinfgacha bola yaxshi o'qimasa uning keyingi yuqori sinfdagi, litsey-kollej, oliy t'limda bilim olish ehtimoli judaha past, yoq desa ham bo'ladi.

Butun dunyoda rivojlanib kelayotgan sohalardan biri AI (sun'iy intellekt) hozirgi kunda ta'limga ham kirib kelmoqda, bu soha kirib kelishi bilan bir necha kasblar

qisqarishga olib keladi, bilimni AI yordamida olish osonroq bo‘lib qoladi. Lekin o‘qituvchining eng katta vazifasini sun‘iy intellekt bajarishi qiyin, o‘quvchining ichki kechilmalari, uning ijtimoiy ahvoli, jamiyatga kira olishi, va shu kani hissiy jarayonlar. Bu hususiyatlarni rivojlantirish o‘qituvchi va ota ona zimmasida qoladi, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, joyi kelsa o‘qituvchi ota-onaning tutgan yo‘lini to‘g‘rilay olishi yoki aksi ota-ona o‘qituvchining tutgan yo‘lini to‘g‘rilay olishi va buni ikki tomon ham ijobiy qabul qilishi kerak bo‘ladi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ota-ona va maktab hamkorligi qanchalik ko‘zimizga kichkina element bo‘lib ko‘rinmasin, bu element farzandlarimiz kelajagini belgilashdagi muhim element desak bo‘ladi. Farzandlarimiz ta‘lim olishlari va o‘z iqtidorlariga mos ravishda yo‘llarini topishida katta yordam beradi. Shuni aytib o‘tish joizki, agar ta‘limni biron bir ishlab chiqarish jarayoni bilan solishtiradigan bo‘lsak, ishlab chiqarishdagi har bir mahsulot elementlari mikron darajadagi o‘lchamlar bilan ko‘zdan kechiriladi, mahsulot sifatli chiqishi uchun belgilangan talablardan oshmasligi hamda kamaymasligi kerak, agar bu talablar yuqori yoki past bo‘lsa bu mahsulot brak hisoblanadi va uni qayta ishlanadi. Shundan so‘ng bu hato mutaxassislar tomonidan o‘rganiladi, sabablar aniqlanib bu hato takrorlanmasligi uchun kerakli ishlar qilinadi. Sifat tadbirkorning kelajagini belgilab beradi, mahsulot bozorida yutuqlarga erishishga olib keladi. Qo‘pol qilib aytganda farzandlarimizdan sifatli mahsulot chiqarmoqchi bo‘lsak har bitta elementiga chuqur e‘tibor berishimiz kerak. O‘qituvchi, maktab ma‘muriyat, psixolog va ota-onalar bir guruh bo‘lib ish olib borsalar albatta bu yaxshi natija beradi. Buni real natijasiga erishish uchun yuqorida aytib o‘tganimizdek har bir kichik element be e‘tibor qolishi kerak emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dildora R., Muxlisa P. (2022). MAKTABDA ZAMONAVIY TA‘LIM MUHITINI YARATISH.
2. Rakhimov M., Yuldashev A., Solidjonov D. (2021). The role of artificial intelligence in the management of e-learning platforms and monitoring knowledge of students. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9)
3. “Cooperation between school and parents. Supporting the educational process” *Education in areas characterized by a lack of access to infrastructure and highly qualified jobs in the context of the Europe 2020 strategy*